

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ZAMON TUSHUNCHASIGA OID
DASTLABKI TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH**

Azamova Nargiza Ulug'bekovna

Osiyo Xalqaro Universiteti 1- magistranti

Ilmiy rahbar: Ro'ziyeva Mohichehra Yokubovna

Filologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida zamon tushunchasiga oid dastlabki tushunchalarni tushuntirish yo'llari, ularning tahlili yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *badiiy asar, obraz, zamon tushunchasi, vaqt.*

Abstract: *This article highlights ways of explaining the initial concepts of the concept of time to primary school students and their analysis.*

Key words: *work of art, image, concept of time, time.*

Аннотация: *В данной статье освещены способы объяснения начальных понятий понятия времени учащимся начальных классов, их анализ.*

Ключевые слова: *художественное произведение, образ, концепция времени, время.*

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa fanlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. Shuningdek, 2020-2021 o'quv yilidan amalga kiritilgan "Milliy o'quv dasturi", uning mazmun-mohiyati, dastur asosida yaratilayotgan yangi avlod darsliklarining o'ziga xosliklari hamda ular haqida xorijiy ekspertlarning fikrlari va keng omma oldida batafsil muhokama etilishi ham eski usullardan voz kechishni taqozo etmoqda. Mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi usullarni qo'llagan holda bolalarga chuqur bilim berish boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Boshlang'ich sinf „O'qish savodxonligi" darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehirli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki

ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan. O'qish ta'limi bo'yicha o'quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo'lmaydi. Negaki matn tagzaminidagi tarbiyaviy g'oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda, har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab etilganda o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi. Zamon ifodalovchi birliklar yordamida ham matnni shakllantirish, ularni anglab, uning komponentlarini bog'lash mumkin. Badiiy asardagi voqea-hodisalar muayyan vaqt asosida ro'yobga chiqadi. Faqat badiiy asardagi vaqt tushunchasi real hayotdagi vaqt muntazamligidan farq qiladi. «Vaqt ma'noli leksemalar matn qismlarini distant (masofasiz, bilvosita) va kontakt (masofali, bevosita) bog'lash uchun xizmat qiladi. Ayrim temporal so'zlar leksik-grammatik bog'lovchi vazifasini bajarib, matndagi xronologik ketma-ketlik, izchillikni aks ettirib turadi»

Ertalab-chi, oyi, yomg'ir yog'di. Qattiq yomg'ir yog'di. Siz bahor yomg'irini yaxshi ko'rardingiz... Keyin oftob chiqib ketdi. Qarang, oftob charaqlab yotibdi...(O'.Hoshimov).

Ushbu matnning shakllanishida vaqt ma'noli birliklarning alohida xizmati bor. Birinchi gapda ertalab leksemasi yordamida sutkaning shu qismida sodir bo'lgan tabiat hodisasi haqidagi informatsiya ifodalanyapti. Keyingi gaplarda ifodalangan hodisalar ham ayni vaqt birligida ketma-ketlikda ro'yobga chiqqan. Ya'ni:

ertalab → yomg'ir yog'di → qattiq yog'di → oftob chiqdi → charaqlab ketdi.[1.230]

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan. 2-sinfning “Bir-birini kuzatadi fasllar” bo'limini o'rganishda albatta yil fasllarini izohlash talab etiladi. Yangi bo'limni boshlashdan oldin, yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi. Bo'lim mazmunini tushunilishi uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa qilib aytib berishi lozim. Ma'lumki, fasllari oltin kabi tovlanadi, uning har kuni sukutda, kunlar keskin emas, bir maromda bo'ladi. Tabiat o'zgarishlari asta-sekinlik bilan ro'y beradi. Fasllarning xosiyati odamda yoqimli tuyg'ular uyg'otadi. Kuzda bolalar bog'larda mevalarni yig'ish, qishga zamin tayyorlashda bevosita ota-onalariga ko'maklashishlari Po'lat Mo'minning «Har faslas» she'rida o'z aksini topgan. Bolalarning kuzgi o'yinlarini o'ynashadi.[3.53] Bo'limni o'rganish jarayonida tabiat bag'riga sayohat uyushtirish ayni muddao bo'ladi. Bolalar yozgi tabiat manzarasiga kuz manzarasini taqqoslaydilar. Yoz va kuzning farqli va o'xshash xususiyatlarini farqlab oladilar va dars davomida fikrlarini bildiradilar. Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy shakli she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish

muhim. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. So'ngra she'rni mustaqil o'qish topshiriladi. O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari, bu jarayonda ularning she'r ritmini buzmasliklariga erishish kerak. O'quvchilar she'r matnini mustaqil o'qiyotganlarida xattaxtaga ma'nosi izohlanadigan so'zlar yozib qo'yiladi. Masalan, «Ko'klamjon» she'ri o'rganilganda «yo'qlamoq», «kurtaklari bo'rtmoq», «ranjimoq», «so'z qotishibdi» so'zlari izohlanadi. Shundan so'ng, she'r o'quvchilarga navbat bilan o'qittiriladi, uning mazmuni yuzasidan savollar asosida suhbat o'tkaziladi. Bunda quyidagicha savollar berilishi mumkin: «She'rda qaysi fasl tasvirlangan ekan?», «Yoz ne'matlari nimalar?», «She'rda qanday gullar nomi keltirilgan?». O'qituvchi berilgan javoblarni to'ldirib, o'quvchilarning yil fasllariga doir tushunchalarini boyitadi. She'r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, she'r mazmuni haqida o'quvchilarga ko'p savol berish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar she'rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o'zi kifoya. Yil fasllariga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, vaqtga doir mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Bunday mavzudagi asarlar o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, badiiy asarni chuqurroq tahlil qilib, tushunib olishlariga, asar sodir bo'layotgan vaqtga tushib qolib, his qilishlariga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hakimova M. O'zbek tilida abstrakt nomlar semantikasi. Filol. fan.dok.-ri (DSc), diss. – Toshkent, 2019. – 230 b.
2. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darsliklar. U.Aydarova, N. Azizova, M.Toirova- Toshkent, "Novda Edutainment", 2023. – 80b.
3. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darsliklar. U.B.Aydarova - Toshkent, "Novda Edutainment", 2023. – 52b
4. www.edu.uz